

## Mardlik va jasorat darsi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, joriy yilning 13 dekabr sanasidagi R-5413 Farmoyishida belgilab berilgan vazifalarning ijrosini sifatli ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini munosib kutib olish va uni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, yoshlar bilan **“Vatan muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!”** - degan umumiy g'oya ostida tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Yunusobod tumani bo'linmasi bilan hamkorlikda harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasi professor-o'qituvchilari ta'lim muassasalariga tashrif buyurib, u yerdagi yoshlar bilan **«Mardlik va jasorat»** mavzusida davra suhbatini olib bordilar.

Yunusobod dizayn kasb - hunar kollejida tashkil etilgan davra suhbatida harbiy kafedra zirxli texnikalaridan foydalanish va ta'mirlash sikli boshlig'i podpolkovnik T. Teshaboyev va sikl katta o'qituvchisi rezervdagi mayor S.Raimov qatnashdilar. Yunusobod dizayn kasb - hunar kollej direktori N. Ikromov davra suhbatida qatnashuvchilarni yoshlarga tanishtirganidan keyin tadbir boshlandi. Davra suhbatini davomida o'quvchilarga harbiy vatanparvarlik ruhidagi videoroliklar va taqdimot materiallari namoyish qilindi. O'quvchilar tomonidan tadbir tashkilotchilariga berilgan savollar suhbatning yanada qiziqarliroq tus olishini ta'minladi.



**Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti harbiy kafedrasi boshlig'i podpolkovnik R. Minlishev axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**